

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ismailov M.Sh., Ajiniyazov B.K., Ospanov A.K., Muratov Ch. Qoraqalpoq zot tipidagi po'lati sur qorako'l qo'ylari va ularning mahsuldorlik xususiyatlari // *Chorvachilik va naslchilik ishi jurnali*. – 2020. – №3. – B. 26–27.
2. Mamatov B.S. Sur rangli qorako'l qo'ylarida surlanish darajasining gul ko'rsatkichlari bilan bog'liqligi // *Chorvachilik va naslchilik ishi jurnali*. – 2019. – №5. – B. 22–23.
3. Parmanova D.M. Qorako'lchilikda naslli qo'zilarini olish usullari // *Chorvachilik va naslchilik ishi jurnali*. – 2021. – №5. – B. 24–25.
4. Urimbetov A.A. Turli etologik tipdagi qoraqalpoq sur qo'ylar avlodlarida gul tiplari va tipga xos gullarning namoyon bo'lishi // *Chorvachilik va naslchilik ishi jurnali*. – 2020. – №2. – B. 27–28.

UO'K: 636.32/38.082.11

EKSTREMAL CHO'L SHAROITLARIDA QORAKO'L QO'YLARINI URCHITISHDA GUL RASMINING ANIQLIGI BO'YICHA SELEKSIYALASH SAMARADORLIGI

A.X.Xatamov–q.x.f.d (PhD)., katta ilmiy xodim,
ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, asror.xatamov@mail.ru,

A.Gaziyev–q.x.f.d., professor, bo'lim mudiri
Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya. Maqolada adir sharoitida qoraqalpoq sur qo'ylarini gullarning joylashish rasmi bo'yicha maqsadli juftlash orqali olingan avlodlarda gul rasmini sifat jihatdan yaxshilash yo'llari bayon qilingan. Shuningdek, tadqiqotlarda gul rasmi yondosh-konsentirik va yondosh-to'g'ri bo'lgan naslli qo'chqorlardan foydalanilib, ijobiy natijalarga erishilgan.

Kalit so'zlar: qorako'l qo'yi, qoraqalpoq suri, adir, gul rasmi, seleksiya, juftlash, avlod.

Summary. The article describes the ways of qualitative improvement of the curl pattern in the offspring obtained by targeted selection of Karakul sheep of the Karakalpak sur according to the curl pattern in the conditions of the adyrs. Also, during the research, positive results were obtained when using breeding rams with parallel-concentric and parallel-straight curl patterns.

Key words: Karakul sheep, Karakalpak sur, adyrs, curl pattern, selection, selection, offspring.

Kirish. Qorako'l qo'ylari ekstremal cho'l sharoitlariga yaxshi moslashgan va qimmatli mahsulotlar bera oladigan qo'y zoti hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda ekstremal cho'l hududlarida urchitiluvchi qorako'l qo'ylaridan samarali foydalanish imkoniyatlari mavjud. Qorako'lchilikda sifatli mahsulot olishda seleksiya ishlarini samarali olib borish muhim ahamiyatga ega.

Qorako‘l qo‘zilari terisida gullar ma’lum bir rasm (shakl) hosil qiladi. Qorako‘l terilaridan tikiladigan buyumlarning chiroyli bo‘lishi gullarning yondosh konsentirik va yondosh-to‘g‘ri holida joylashishiga bog‘liq. Aynan shunday rasmga ega qorako‘l terilar qimmatli hisoblanadi.

Tadqiqotlarda aniqlanishicha, adir sharoitida urchitiluvchi qo‘ylar avlodlari terisida gullarning joylashish rasmi nisbatan sifatsiz (noaniq) bo‘lishi, ya’ni aralash va boshqa turdagi rasmlar ko‘proq uchrashi ta’kidlangan. Seleksiya-naslchilik ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va samarali juftlash orqali gullarning joylashish rasmini sifat jihatdan yaxshilash mumkin.

Shu nuqtai nazardan tadqiqotlar doirasida adir sharoitida urchitiluvchi qoraqalpoq sur qorako‘l qo‘ylaridan olinadigan avlodlarda gullarning joylashish rasmini asosan yondosh-konsentirik va yondosh-to‘g‘ri bo‘lishiga qaratilgan juftlash ishlari olib borildi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotlar adir hududi hisoblangan, Navoiy viloyati Nurota tumani “Istiqlol qorako‘l naslchilik” MCHJ da qoraqalpoq suriga mansub qorako‘l qo‘ylari va qo‘chqorlari tanlandi. Tadqiqotlarda turli juftlash variantlarida olingan avlodlarning barra teri xususiyatlari ularning 1-3 kunlik yoshida “Qorako‘lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo‘zilarni baholash (bonitirovka qilish) bo‘yicha qo‘llanma” [2] talablari asosida baholandi.

Olingan ma’lumotlarga variatsion statistika usullarida o‘rtacha ko‘rsatkich (X), o‘rtacha ko‘rsatkich xatosini (Sx), aniqlash yo‘li bilan matematik ishlov berildi [1].

Tadqiqot natijalari. Gullarning joylashish rasmini sifat jihatdan yaxshilash maqsadida gul rasmi yondosh-konsentirik va yondosh-to‘g‘ri bo‘lgan naslli qo‘chqorlardan foydalanildi. Olingan natijalar quyidagi 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval

Gullarning joylashish rasmi, %

Juftlash varianti		n	Gullarning joylashish rasmi, %			
♀	♂		Yondosh konsentrik	Yondosh to‘g‘ri	Aralash	Boshqa
Yondosh konsentrik	Yondosh konsentrik	225	67,11±3,13	18,66±2,59	14,22±2,32	-
Yondosh konsentrik	Yondosh to‘g‘ri	167	44,31±3,84*	40,11±3,79*	15,56±2,80	-
Yondosh konsentrik	Aralash	118	44,06±4,57*	11,02±2,88 [~]	43,22±4,56*	1,69±1,2
Yondosh to‘g‘ri	Yondosh to‘g‘ri	143	20,97±3,40*	65,73±3,96*	13,28±2,83	-
Yondosh to‘g‘ri	Aralash	72	15,27±4,23*	44,44±5,85*	37,5±5,70*	2,77±1,9

Izoh: * P<0,001; [~]P<0,05

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, turli juftlash variantlari bo‘yicha olingan ma’lumotlar turlicha bo‘lib, qaysi variantda juftlash xo‘jalik uchun zarur yoki muhim bo‘lsa shu variantdan seleksiya jarayonida foydalanishga e’tibor qaratiladi.

Tadqiqotlarda “yondosh konsentrik x yondosh konsentrik” juftlash variantida asosan yondosh-konsentrik (67,11%) gul rasmiga ega avlodlar olingan. Shuningdek, yondosh-to‘g‘ri va aralash gul rasmiga ega avlodlar mos ravishda 18,66 va 14,22 foizni tashkil qilgan.

Yondosh-to‘g‘ri gul rasmiga ega avlodlar salmog‘ini oshirishga qaratilgan “yondosh konsentrik x yondosh to‘g‘ri” juftlash variantida yondosh-konsentrik gul rasmiga ega avlodlar 44,31% ni, yondosh-to‘g‘ri gul rasmiga ega avlodlar 40,11% ni hamda aralash gul rasmiga ega avlodlar 15,56% ni tashkil etgan. Ushbu variantda aralash gul rasmiga ega avlodlar miqdori “yondosh konsentrik x yondosh konsentrik” juftlash variantiga nisbatan 1,34 foiz oshgan.

Aralash gul rasmiga ega qo‘ylarni yondosh-konsentrik gul rasmiga ega naslli qo‘chqorlar bilan yaxshilashga qaratilgan “yondosh-konsentrik x aralash” juftlash variantida yondosh-konsentrik gul rasmiga ega avlodlar 44,06% ni, yondosh-to‘g‘ri gul rasmiga ega avlodlar 11,02% ni tashkil qilgan. Ushbu variantda aralash gul rasmiga ega avlodlar salmog‘ini 43,22% gacha kamaytirishga erishilgan. Boshqa gul rasmiga ega avlodlar 1,69% ni tashkil qilgan. Ushbu juftlash variantida aralash gul rasmiga ega avlodlar miqdori “yondosh-konsentrik x yondosh-konsentrik” va “yondosh-konsentrik x yondosh-to‘g‘ri” juftlash variantlariga nisbatan 27,66 va 29,0 foiz ko‘p bo‘lgan. Yondosh konsentrik gul rasmiga ega avlodlar salmog‘i 44,06% gacha kamaygan.

Yondosh-to‘g‘ri gul rasmiga ega avlodlar salmog‘ini oshirishga qaratilgan “yondosh-to‘g‘ri x yondosh-to‘g‘ri” juftlash variantida olingan avlodlarning 20,97% yondosh-konsentrik, 65,73% yondosh to‘g‘ri, 13,28% aralash gul rasmiga ega bo‘lgan. Ushbu juftlash variantini qo‘llash orqali yondosh-to‘g‘ri avlodlar salmog‘i 65,73 foizgacha oshganligi aniqlandi.

Aralash gul rasmiga ega sovliqlarni yondosh-to‘g‘ri gul rasmiga ega naslli qo‘chqorlar bilan yaxshilashga qaratilgan “yondosh-to‘g‘ri x aralash” juftlash variantida yondosh-konsentrik gul rasmiga ega avlodlar 15,27% ni, yondosh-to‘g‘ri gul rasmiga ega avlodlar 44,44% ni, aralash gul rasmiga ega avlodlar salmog‘i 37,5% ni, boshqa gul rasmiga ega avlodlar 1,69% ni tashkil qilgan. Ushbu juftlash variantini qo‘llashda yondosh-to‘g‘ri avlodlar salmog‘i 44,44 foizgacha oshirish mumkinligi aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda, turli juftlash variantlari bo‘yicha qimmatli hisoblangan yondosh-konsentrik va yondosh-to‘g‘ri gul rasmlari avlodlar salmog‘ini mos ravishda 15,28 foizdan 67,11 foizgacha va 11,02 foizdan 65,731 foizgacha oshirish mumkinligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Плохинский Н.А. Руководство по биометрии для зоотехников. Москва. 1969. 256 с.

2. Юсупов С.Ю. ва бошқалар. Қорақўлчиликда наслчилик ишларини юритиш ва қўзиларни баҳолаш (бонитировка қилиш) бўйича қўлланма. Тошкент 2015 й. 31 б.

M U N D A R I J A

1	Shaptakov E.S., Xatamov A.X. Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot institutida erishilgan ilmiy natijalar	3
2	Шаптаков Э.С., Хатамов А.Х., Ахмадалиева Л.Х., Кличев З.С. Изобретательская деятельность в НИИ каракулеводства и экологии пустынь, посвященная 95 летнему юбилею института	6
I. CHO‘L CHORVACHILIGINI RIVOJLANTIRISHNING SELEKSION VA GENETIK MUAMMOLARI VA YECHIMLARI		
3	Shaptakov E.S., Yarmanov M.S. Sur rangli avlodlarning pigmentlanish darajasini gul tiplariga bog‘liqligi	10
4	Xatamov A.X., Gaziyeu A. Ekstremal cho‘l sharoitlarida urchitiluvchi qorako‘l qo‘ylarini urchitishda gul rasmining aniqligi bo‘yicha seleksiyalash samaradorligi	12
5	Газиев А., Хатамов А.Х., Маматов Б.С., Фазилов У.Т. Турли экологик шароитда қоракўл қўйлари селекция белгиларининг ўзгарувчанлиги	15
6	Арипов У., Имомов Х., Турсунов Ж. Жизнеспособность каракульских овец, мониторинг биопродуктивных признаков и улучшение качества каракуля	21
7	Уримбетов А.А., Газиев А. Особенности проявления селекционных признаков у ягнят сур каракалпакского породного типа	27
8	Уримбетов А.А., Газиев А. Совершенствование методов селекции каракульских овец каракалпакского сура разных этологических типов	30
9	Фазилов У.Т., Газиев А., Туранов М. Музей коллекции оригинальных каракульских шкурок уникального научного объекта	34
10	Imomov X.N., Aripov U.X. Turli genotipli avlodlar gullarining rasmi va mustahkamligi	39
11	Seytmusayeva Z.A., Gaziyeu A. Qoraqalpoq sur qo‘ylarini differensiyalangan juftlashdan olingan avlodlarning jun-tola sifati	43
12	Shaptakova L.E., Gaziyeu A. Turli gul tipi va sinfdagi qorako‘l qo‘zilarining jun-tola qoplami pigmentatsiyasi va gul mustahkamligi	46
13	Norboyeva G.S., Gaziyeu A. Gullarning joylashish rasmiga bog‘liq holda qora qorako‘l qo‘zilarining o‘shish va rivojlanish ko‘rsatkichlari	49
14	Mamatov B.S. Rangbarangliklar bo‘yicha juftlashdan olingan avlodlarda gul o‘lchami ko‘rsatkichlari	52
15	Turanov M.H. Buxoro suriga mansub olmos va kumushsimon rangbaranglikdagi qo‘ylardan olingan avlodlarda belgilarning o‘zgaruvchanligi	55